

SHAYBONIYLAR DAVRIDA URF-ODATLAR, AN'ANALAR VA DINIY HAYOT

Jumaniyazov Sardorbek Muxtorbek o'g'li, Qoraqalpoq davlat universiteti 1-bosqich magistranti

CUSTOMS, TRADITIONS, AND RELIGIOUS LIFE DURING THE SHAYBANID ERA

Jumaniyazov Sardorbek Mukhtorbek o'g'li, 1st-year master's student at Karakalpak State University

ОБЫЧАИ, ТРАДИЦИИ И РЕЛИГИОЗНАЯ ЖИЗНЬ В ЭПОХУ ШАЙБАНИДОВ

Джуманиязов Сардорбек Мухторбек оглы, магистрант 1-курса Каракалпакского государственного университета

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shayboniylar davrida shakllangan urf-odatlar, xilma-xil an'analar va diniy hayot masalalari yoritiladi. Shuningdek, shayboniy hukmdorlarining dinga bo'lgan munosabati ham tarixiy-etnografik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda davr ma'naviy hayotining o'ziga xos jihatlari va ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan ochib beriladi.

Kalit so'zlar: shayboniylar, urf-odat va an'analar, to'y marosimlari, bayramlar, diniy hayot, sport musobaqalari, fol ochish, marosimlar.

Annotation: This article explores the customs, diverse traditions, and aspects of religious life that emerged during the Shaybanid period. It also analyzes the attitude of the Shaybanid rulers toward religion based on historical and ethnographic sources. The study highlights the distinctive features of the spiritual life of the era and examines their significance for social relations and the overall development of society from a scholarly perspective.

Keywords: shaybanids, customs, traditions, wedding ceremonies, festivals, religious life, sports competitions, fortune-telling, rituals.

Аннотация: В данной статье освещаются обычаи, разнообразные традиции и религиозная жизнь, сложившиеся в эпоху Шайбанидов. Особое внимание уделяется отношению шайбанидских правителей к религии, анализируемому на основе историко-этнографических источников. В исследовании раскрываются уникальные черты духовной жизни эпохи и их значение для общественного развития.

Ключевые слова: Шайбаниды, обычаи, традиции, свадебные обряды, праздники, религиозная жизнь, спортивные соревнования, гадания, ритуалы.

KIRISH. Shayboniylar davri Markaziy Osiyo tarixida alohida o'rin tutadi. Bu davrda davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlar, madaniy hayot va diniy qarashlarda sezilarli o'zgarishlar yuz bergan. Xalq urf-odatlarini, an'analarini, to'y va bayram marosimlari, diniy hayot unsurlari

jamiyatning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Sport musobaqalari, turli marosim va udumlar ham davrning ijtimoiy hayotida keng o'rin egallagan. Shayboniy hukmdorlarining dinga bo'lgan munosabati esa diniy hayot va ma'naviy muhit



<https://orcid.org/https://orcid.org/0009-0008-3659-6594>

e-mail:

jumaniyazovsardor@gmail.com



rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Mazkur maqola ana shu jarayonlarni tahlil qiladi hamda ularning o'z davri jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib beradi. Shuningdek, bu davrda xalqning kundalik hayoti, urf-odat va an'analari, ijtimoiy marosimlar orqali avlodlararo ma'naviy meros uzviy davom ettirilgan. Nikoh va to'y marosimlari, Ramazon va Qurbon hayitlari kabi diniy bayramlar, Navro'z kabi qadimiy umumxalq bayramlari keng nishonlangan. Musobaqalar va o'yinlar, shu jumladan kurash, ot poygasi, kamondan o'q otish kabi an'anaviy sport turlari ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lgan. Mazkur tadqiqotning maqsadi Shayboniylar davrida shakllangan urf-odatlar, an'analar va diniy hayot masalalarini yoritish, shayboniy hukmdorlarining diniy qarashlarini tahlil qilish hamda bu jarayonlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat. Ushbu maqola mavzuni yanada chuqur o'rganish uchun ilmiy adabiyotlar va manbalardan foydalanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Shayboniylar o'zbek davlati haqida shu kungacha ko'plab manbalar yetib kelgan. Shayboniylar davri bo'yicha yoritgan ilmiy tadqiqot manbalaridan eng avvalo, A.Qayumovning "Shayboniylar davri tarixi" asarida ushbu davr siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlari batafsil tahlil qilingan[1]. Muallif shayboniy hukmdorlarining davlat boshqaruvi, ularning diniy siyosati hamda jamiyat hayotiga ko'rsatgan ta'sirini yoritadi. A.Sagdullayevning "O'zbek xalqining urf-odatlari va an'analari" nomli fundamental tadqiqotida o'zbek xalqining marosimlari, to'y va dafn marosimlari, diniy bayramlari, shuningdek, qadimiy xalq o'yinlari va sport musobaqalari haqida boy etnografik ma'lumotlar keltirilgan[2]. Bu asar shayboniylar davridagi ijtimoiy hayotni o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. X.Ziyoyevning "Shayboniylar davlati va uning siyosiy hayoti" kitobida shayboniylar davlatchiligi, hukmdorlarning diniy qarashlari va ularning ulamolar bilan munosabatlari ilmiy tahlil qilingan[3]. Asarda diniy siyosat va uning xalq hayotiga ta'siri, shuningdek, islomiy qadriyatlarining mustahkamlanish jarayoni chuqur yoritilgan. Bundan tashqari, B.Karimovning "Markaziy Osiyo xalqlarining diniy marosimlari" asarida diniy hayotning turli jihatlarini, Ramazon va Qurbon hayiti kabi islomiy bayramlarning tarixiy

ildizlari va ularning ijtimoiy ahamiyati tadqiq etilgan[4]. Ushbu tadqiqot shayboniylar davrida diniy hayotning rivojlanishini tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, S.Madrahimovning "O'zbek xalq o'yinlari va sport an'analari" asarida o'sha davrda mashhur bo'lgan kurash, ot poygasi, kamondan otish kabi sport turlari haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan[5]. Bu esa shayboniylar davridagi ijtimoiy hayotning qiziqarli jihatlarini yoritish imkonini beradi. Mazkur manbalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, Shayboniylar davri nafaqat siyosiy tarix, balki boy etnografik merosga ega davr bo'lib, xalq urf-odatlarini, diniy hayoti va ma'naviy dunyosini o'rganish Markaziy Osiyo tarixshunosligida muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ma'lum bir vaqt davomida Buxoroda yashagan, Movarounnahr ilmiy hayotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Abulxayr Fazlulloh ibn Jamoliddin Fazlulloh ibn Ro'zbexon Isfaxoniy Xunjiy (1457-1533) Shayboniixon davrida shoh Ismoilning ta'qibidan qochib, Buxoroga kelgan olimlardan biri edi[6]. Xunjiyning 1503-1509-yillar oralig'ida yozilgan "Mehmonnomayi Buxoro" nomli asarida Shayboniixonning janglari, qahramonliklari, davlatning ichki va tashqi siyosati haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda, Turkiston va dashti qipchoq xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, qozoqlar va o'zbeklar o'rtasidagi savdosotiq munosabatlari, shuningdek urf-odatlarini, an'analari to'g'risida ham ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Yuqorida nomlari zikr qilingan manbalar, tarixiy asarlar va sayyohlarning kundaliklari orqali bugungi kunda Shayboniylar davlati va Buxoro xonligidagi ijtimoiy hayot, aholining turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlarini, shuningdek, ularning dinga bo'lgan munosabatlari haqida batafsil ma'lumotlar to'plashimizda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va qisman etnografik usullar qo'llanildi. Avvalo, Shayboniylar davri tarixini yorituvchi yozma manbalar – tarixchilar asarlari, xronikalar va hujjatlar asosida faktlar to'plandi. Shu bilan birga, mavzuga oid zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar va maqolalar o'rganildi hamda ular o'zaro qiyosiy tahlil qilindi. Maqolada urf-odatlar, an'analar va diniy hayotga oid ma'lumotlar

tizimlashtirildi, ularning jamiyat hayotidagi oʻrni va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashga harakat qilindi. Etnografik yondashuv orqali xalq marosimlari va udumlari tavsiflab berildi, ularning shakllanish va rivojlanish omillari ochib berildi. Tadqiqot jarayonida shuningdek, tarixiy hodisalarga zamonaviy ilmiy nuqtai nazardan baho berildi, ularning ijtimoiy taraqqiyotdagi oʻrni va davr madaniy hayotiga taʼsiri umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Shayboniylar davri manbalarini tahlil qilish natijasida ushbu davr ijtimoiy va maʼnaviy hayoti boy va rang-barang boʻlganini koʻrishimiz mumkin. Shuningdek, tadqiqot davomida oʻrganilgan ilmiy ishlar, tarixiy manbalar orqali aytishim mumkinki, shayboniylar Movarounnahrda Temuriylardan keyin ularga munosib ravishda oʻziga xos madaniyat, ilm-maʼrifat maskani yarata oldi. Masalan, 1585-yil shaʼbon oyida Abdullaxon tomonidan oʻgʻli Abdulmoʻmin uchun uyushtirilgan marosimda hududlardagi barcha sultonlar, xonlar, maʼmurlar, amirlar va din ulamolari taklif etilgan. Ichida xon saroyi ham joylashgan Bogʻi Shahrdagi boʻlib oʻtgan marosimda dasturxon yozilib, har xil kuylar chalinadi[7]. Sunnat marosimi paygʻambar alayhissalomning sunnati sanjalaridan boʻlib, sunnatga ixlos qoʻyish maqsadida oʻtkazilgan mazkur marosimda shahzodaga otlar, tilla naqshli choponlar, oltin, marvarid va yoqut solingan turli xil hamyonlar sovgʻa qilingan. Bu kabi marosimlardan anglashimiz mumkin boʻladiki, shayboniylar kelib chiqishi mogʻullardan boʻlishiga qaramasdan ular Movarounnahr va Xurosonda oʻrnashib olganidan keyin tub yerli aholi madaniyatini, urf-odatlarini, dinga boʻlgan qarashlarini juda yaxshi oʻzlashtirib olishga muvaffaq boʻlishgan. Shayboniylar shuningdek, Chingizxondan meros boʻlib qolgan eʼtiqodlardan biri “Yat” yoki “yada” (joda) yulduzlarga qarab (fol ochish) harakat qilish amallariga ishonishgan[8]. Manbalarda qayd qilingan maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, oʻsha davrda xalq yada eʼtiqodiga qattiq ishongan va janglarda bundan foydalangan. Bu davrda toʻylarning asosiy vazifasi koʻngilxushlik qilish edi. Bunday marosimlar ramziy maʼnoda doʻst va dushmanga oʻzini koʻrsatib qoʻyish vazifasini ham bajaradi. Toʻylardagi xonlar tomonidan amalga oshirilgan ehsonlar omma oldida ularning qadrini yana ham oshirishga xizmat qilardi. Shu bilan birga,

marosimlardagi dabdaba va ziyofatlar ham xonlarning va boshqaruvchilarning kuchini koʻrsatish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega boʻlgan. Toʻy va marosimlardan tashqari tarixiy manbalarda Ramazon bayrami, Qurbon hayiti, Ashuro kuni va Navroʻz bayrami ham keng nishonlanganligi tilga olinadi. Xunjiy asaridagi Ramazon hayitining birinchi kunini tasvirlagan qismida quyosh oʻzining qudrati va ulugʻvorligi bilan ogʻizlarini ochgan roʻzadorlarga savob yogʻdirayotganini, goʻyo ufqning quyosh kosasidan ularga sut qadahi uzatib, nur sochayotgani haqida gapiradi. Bayram kuni saodat bayrogʻi osmonning eng baland nuqtasiga koʻtarilib, yuqoridan kelayotgan rahmat va nurga minglab taqbirilar aytiladi. Buxorodagi “Musalloi Buxoro”da sultonlar darajalariga koʻra tartib bilan yigʻilishadi va Devoni Humoyun aʼzolari qiyomda turgan holatda bir ovozdin salovat va takbir aytishadi. Marosimda qatnashayotgan sultonlar, buyuk amirlar, mashhur allomalar va fazilatli kishilar martabalariga koʻra oʻtirishadi. Bundan tashqari, Xunjiy ramazon bayramida Buxorodagi Qovoq maydonida oʻtkazilgan oʻq otish marosimi haqida ham maʼlumot beradi[9]. Muhammad Shayboniynonning dinga boʻlgan qiziqishi bolaligidin boshlangan edi. Shayboniynon Buxoroda ekanligida Bahouddin Naqshband qabrini ziyorat qiladi. Bu ziyoratlarning zamirida buxoroliklarning gunohlaridin tavba qilish, duo va iltijolar bila shu yerda xizmat qilish orqali gunohlarining kechirilishi yotar edi. Shayboniynon bu yerda Bahouddin Naqshbandning nabirasi, oʻz davrining yirik naqshbandiya xojalaridin boʻlgan Xoja Nizomiddin Mir Muhammad bilan uchrashish imkoniyatiga ega boʻlib, keyinchalik uni bir necha bor ziyorat qiladi. Mazkur ziyoratlar chogʻida Xojaning xonaqohida tahajjud namozlarini oʻqib, unga oʻz sadoqatini bildiradi[10]. Shayboniynon davrida Qurbon hayiti Sigʻnoqda nishonlanar edi. Bu yerda fath qilingan va qoʻlga kiritilgan neʼmatlar uchun shukronalik maqsadida qurbonliklar soʻyilgan. Shayboniynon bobosi Abulxayrxonning maqbarasida hayit namozini oʻqib, tashriq takbirlarini aytadi va oʻzi atagan qurbonligini soʻyadi. Shu yerda Shayboniynonning Navroʻz bayrami kunlarida amalga oshirgan koʻngilochar tadbirlarini ham aytib oʻtish darkor[11]. Shayboniylar davridagi sport turlari haqida toʻxtaladigan boʻlsak, ular orasida koʻk

bo'ri, ovchilik, kurash va kamondan o'q uzish kabilarni sanab o'tish mumkin. Z.V.To'g'on shayboniylarning aqliy faoliyatdan ko'ra jiddiy va og'ir jismoniy faoliyatga katta ahamiyat berganliklarini va ko'k bo'ri deb nomlangan eski uslubdagi harbiy sport turlarini afzal bilganlarini ta'kidlaydi[12]. Ovchilik o'z davrining rivojlangan sport turlaridan biri edi. Abdullaxonning Chahorchuda ov qilgani haqida rivoyat qilinadi[13]. Kurashning keng tarqalgan sport turi Movarounnahrda joylashgan Marg'ilonda keng yoyilgani manbalarda keltiriladi. Manbalarda, shuningdek "Mushtlashuvda mahoratli bo'lib, janjalkash xalqdir. Mushtlashuv Movarounnahrda keng tarqalgan odatdir. Samarqand va Buxoroda nom qozongan polvonlarning ko'pchiligi marg'ilonlikdir", - deya ta'kidlanadi[14].

XULOSA. Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, Movarounnahr va Xurosonda deyarli bir asr hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasi o'lkada ilm-ma'rifat, madaniyat yoyilishini davom ettirishga erishishdi, shu bilan bir qatorda, islom diniga bo'lgan sodiqlik va hurmat tufayli tarixda o'ziga xos iz qoldirishdi. Garchi, turli manbalar Shayboniixon va uning avlodlarini ko'chmanchi mog'ul avlodlaridan ekanligi, shu bilan bir qatorda Temuriylar hukmronligiga barham berib, hokimiyatni o'z qo'liga olgan bosqinchi sifatida e'tirof etilishi masalaga faqat bir tomonlama qarash deb bilaman. Chunki, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda avj olgan siyosiy tarqoqlik, temuriy shahzodalar o'rtasidagi taxt uchun o'zaro urushlar, oddiy xalqqa nisbatan zo'ravonlik, soliqlarning nohaq oshirilishi mamlakatning yagona markaziy hokimiyat atrofida birlashtira oladigan siyosiy kuchga ehtiyoji borligi yaqqol namoyon bo'lib qoldi. Shayboniixonning davlatchiligimiz oldidagi ulkan xizmatlaridan biri bu butun mintaqani yagona bir markaz – Samarqand qo'l ostida birlashtira olganidir. U temuriyzodalar amalga oshira olmagan ishni

bajardi. Shayboniy hukmdorlar orasida ham o'qimishli, ziyoli davlat arboblari, madrasa ta'limini olgan, dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan shaxslar bor edi. Ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik, urf-odatlar va an'analar ravnaq topishida sulola vakillarining xizmatlari katta bo'lgan. Shu yo'l bilan ular temuriylar davrida yurtimizda yuksak rivojlangan va dunyo e'tirof etgan ilm-fanga ma'lum ma'noda o'z hissalarini qo'sha olgan munosib voris bo'ldilar, deyiшимiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qayumov, A. (2010). Shayboniylar davri tarixi. Toshkent: Fan.
2. Sagdullayev, A. (2008). O'zbek xalqining urf-odatlar va an'analari. Toshkent: Ma'naviyat.
3. Ziyoev, X. (2012). Shayboniylar davlati va uning siyosiy hayoti. Samarqand: Zarafshon.
4. Karimov, B. (2015). Markaziy Osiyo xalqlarining diniy marosimlari. Buxoro: Iqtisod-Moliya.
5. Madrahimov, S. (2016). O'zbek xalq o'yinlari va sport an'analari. Toshkent: Sport.
6. Seyfettin Erşahin. Akkoyunlular, siyosal, kùltùrel, ekonomik ve sosyal tarih, bizim büro basımevi - Ankara, 2002 -S.232.
7. Taniş. Şerefname-i Şahi,c. II,vr .206a - 207a.
8. Oğel. Türk kùltür tarihine giriş. - S.275.
9. Hunci. Mihmanname-i Buhara. - S.192, 196 - 197.
10. Nisari. Müzekkiru Ahbab. - S.18 - 19.
11. Hunci. Mihmanname-i Buhara. - S.245, 290 - 294, 308; Altier. Şiban han dönemi özbek sanatı. - S.107.
12. Togan. Bugünkü Türkili ve Türkistan ve yakın tarihi. - S.46.
13. Kutgan. Musahharü'l-Bilad. - S.328.
14. Bobur. Baburnoma: Babur'un hatıratı, c. I. - S.5 - 6.

